PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

SAID AHMAD ASARLARIDA MILLIY-PSIXOLOGIK QIYOFANI AKS ETTIRUVCHI LISONIY VOSITALAR

Dadabayeva Maxinabonu
Farg‘ona davlat universiteti
Filologiya fakulteti o‘zbek tili
1-bosqich talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20135562

Annotatsiya: Quyidagi maqolada psixolingvistika va ushbu sohada ish olib borgan olimlarning fiklari bilan tanishasiz. Bundan tashqari, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad hajviyalaridagi psixologik qiyofani aks ettiruvchi lisoniy vositalar tahlil qilinadi. Muallif qahramonlar nutqi va xarakterini ochib berishda foydalangan belgilar haqida ma’lumotga ega bo‘lasiz.
Kalit so‘zlar: psixolingvistika, kodlash, dekodlash, materialistik yo‘nalishi, antinomiya, nutqiy faoliyat, sotsiolingvistika, nutq madaniyati, lingvokuturologiya, metafan.

Annotation: This article introduces psycholinguistics and the views of scholars who have worked in this field. In addition, it analyzes the linguistic means that reflect the psychological image in the satirical works of the People's Writer of Uzbekistan, Said Ahmad. You will also gain information about the devices used by the author to reveal the speech and character of the protagonists.
Keywords: psycholinguistics, encoding, decoding, materialistic approach, antinomy, speech activity, sociolinguistics, speech culture, linguoculturology, metascience

Аннотация: В данной статье рассматриваются психолингвистика и взгляды ученых, работавших в этой области. Кроме того, анализируются языковые средства, отражающие психологический облик в сатирических произведениях народного писателя Узбекистана Саида Ахмада. Также представлена информация о средствах, использованных автором для раскрытия речи и характера героев.
Ключевые слова: психолингвистика, кодирование, декодирование, материалистическое направление, антиномия, речевая деятельность, социолингвистика, культура речи, лингвокультурология, метанаука

Kirish:

O‘zbek tilshunosligiga o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab yangi sohalar kirib keldi. Sotsiolingvistika, nutq madaniyati, lingvokuturologiya shular jumlasidandir. Ayni shu paytda psixolingvistika sohasi ham zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Tilshunoslik fani inson ongi, nutqi hamda ruhiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Shuning uchun, psixologiya va lingvistika kabi sohalar o‘zaro birlashib, zamonaviy bir soha bo‘lmish psixolingvistika vujudga keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dunyo tilshunosligida psixolingvistika rivojiga Lev Vigotskiy, Jean Piaget , Aleksey Leontyev , Charles Osgood , Noam Chomsky kabi tilshunos olimlar o‘z hissalarini qo‘shganlar [19,15,6,14,3].

O‘zbek tilshunoslaridan Anvar Hojiyev, Ergash Begmatov, Mamatkul Jo‘rayev, Shahriyor Safarov, Dilfuza Nigmatova kabi olimlar bu sohada bir qator ilmiy izlanishlar olib borganlar [4,2,5,16,17,12].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Psixolingvistika” termini birinchi marta amerikalik psixolog N.Pronko tomonidan 1946-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. “Psixolingvistika” psixologiya (yunon.psyche “ruh”) va lingvistika(lotin. lingua “til”) kesishgan nuqtadagi metafan, ya’ni psixologiya va lingvistikaning sintezi hisoblanadi. 1953-yilda AQShning Blumington shahridagi Indiana universiteti huzuridagi Lingvistika va psixologiya qo‘mitasi tomonidan tashkil etilgan universitetlararo seminarda psixolingvistika mustaqil fan sifatida e’lon qilindi [1,7]. Shundan so‘ng, psixolingvistika sohasi bo‘yicha ko‘plab mashhur olimlar ish olib borishdi. Jumladan, badiiiy asarlardagi qahramonlar nutqida vujudga keluvchi turli psixologik vaziyatlar, shu bilan birga, asarda foydalanilgan har xil lisoniy vositalar ko‘rib chiqildi va tahlil qilindi. Demak, yuqoridagi ma’lumotlardan shuni anglash mumkinki, psixolingvistika bu inson ruhiy holatini til orqali ifodalanishini o‘rganuvchi soha. Ya’ni shaxs qanday lisoniy vositalarni o‘z nutqi davomida qo‘llayotgani bu soha uchun juda muhim. Shu bilan birga, bunday lisoniy vositalarni qaysi vaziyat paytida, kimga nisbatan ishlatgani shaxsning ruhiy holatini ochib beradi.

Psixolingvistika ikki qismdan iborat: psixo (ruhiyat/psixologiya) va lingvistika (tilshunoslik) ya’ni bu til, tafakkur va inson psixologiyasi o‘rtasidagi borliqlikni o‘rganadigan fanlararo soha. Oddiy qilib aytganda, u “Inson miyasi tilni qanday o‘zlashtiradi, tushunadi va nutq hosil qiladi?” degan savollarga javob izlaydi. Psixolingvistika faqat til qoidalarini emas, balki o‘sha qoidalarni nutqiy faoliyat davomida qay holatda foydalanishni o‘rganadi yoki tahlil qiladi. Ya’ni inson nutqiy faoliyat jarayonida, qaysi til birligini nutqda reallashtirayotgani, qaysi emik bikliklarni tanlayotgani ham uning ruhiy holatini ochib berishga yordam beradi.

Dastlabki psixolingvistik g‘oyalar Vilgelm fon Gumboldning antinomiyasida va “yosh grammatikachilar”ning individual psixologiya nazariyasida shakllangan edi. Chunonchi, nutqiy faoliyat va tilning jamoa va shaxs munosabatlarini chambarchas bog‘lashga xizmat qilishi haqidagi g‘oya Gumboldtga tegishlidir. V. fon Gumboldtning talqinicha, tillar xalqlar va alohida shaxslarning ijod mahsuli, chunki til nutqiy faoliyat jarayonida yuzaga keladi. U til va uning sohibi bo‘lgan jamoa munosabatini bilish zarurligini ta’kidlaydi, zero, til tizimidagi umumiylik va xususiylik belgilari aynan jamoa va shaxs munosabatlariga borib taqaladi. Bu munosabatlar asosida, o‘z navbatida, til tizimining ijtimoiy va individual xususiyatlari qarama-qarshiligi (antinomiyasi) shakllanadi[18,12].

Masalan, domla chet elga kim borsa, danak olib kel, deb tayinlashini. Sayohatchilar uning yuzidan o‘tolmay, o‘shoqlarda o‘rik yesalar, danagini tashlamay olib kelaverishibdi. Domla shunday qilib bir xalta danak yig‘gan edi. Kelin bechora uning “danak jinnisi”ligini bilmay, domla yo‘g‘ida shu bir xalta danakni chaqib yeb qo‘yibdi. Boshqorong‘i ekan-da, bechora. Domla ko‘chadan kelsa bir hovli danak po‘chog‘i yotgan emish. Ko‘ribdi-yu, tutqanog‘i tutib qopti. Hushiga kelib, butun hovlini boshiga ko‘tarib dod solibdi. Qo‘ni-qo‘shnilar yig‘ilibdi. Uning fe’lini bilganlar lom-mim deb og‘iz ochisholmabdi. Kelinning rangi quv oqarib ketgan, dag‘-dag‘ titrar emish. Keyin domla o‘g‘liga o‘dag‘aylabdi:

– Bu uyda yo men turaman, yo xotining turadi!

Albatta, yangi kuyov bir nima deyolmay til chaynab, anqayib turaveribdi.

Bu gap kelinning hamiyatiga tegib, kiyim-boshini tugib otasinikiga ketib qopti.(Said Ahmad “Danak domla”)

Ushbu parchada o‘rik mevasining bir individ nutqida juda muhim va zarur obyekt ekanligini ko‘ramiz. Aslida, o‘rikni jamiyatda oddiy meva sifatida qaraydigan bo‘lsak, ya’ni ijtimoiy jihatdan u oddiy bir mevaning turi deb qaraladi. Domlani “danak jinnisi” deb atashlari ham bejizga emas. Shu birgina ibora orqali induvidning qanchalik bu ishga kirishib ketganini va bu mevani hatto kelinidan ham ustun ko‘rishini ochib beryapti. “Kelinning rangi quv oqarib ketgan, dag‘-dag‘ titrar emish.” bu yerda kelinning qanchalik qo‘rqqani mana shu gap orqali yuzaga chiqqan “dag‘-dag‘ titrar emish” o‘xshatishida bu yaqqol o‘z aksini topgan. ” Bu uyda yo men turaman, yo xotining turadi!” ushbu

lisoniy vosita esa Danak domlaning kelinidan qanchalik g‘azabda ekanini ifodalagan. Bunga qarama-qarshi ravishda, ”Qo‘ni-qo‘shnilar yig‘ilibdi. Uning fe’lini bilganlar lom-mim deb og‘iz ochisholmabdi” gapini keltirish mumkin. Chunki, bu gapda ijtimoiy jamoa ya’ni qo‘shnilarning bu masalaga beparvoligi va hech narsa demasliklari ham bu cholning va kelinning nutqiy holati o‘rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

L.S.Vigotskiy o‘zini psixologiyaning materialistik yo‘nalishi vakillari qatoriga kiritgan edi. L.S.Vigotskiy insonning nutqiy faoliyatini o‘rganish bilan eng ko‘p shug‘ullangan olim bo‘lib, uning nutqqa psixologik yondashuvi psixolingvistik nazariyani shakllantirishga olib keldi. Jumladan, L.S.Vigotskiyning “elementlar bo‘yicha tahlil” va “birliklarga ko‘ra tahlil” farqlari ta’limotining fanga kiritilishi, turli psixolingvistik maktablar tomonidan yaratilgan nutq yaratilishi va idrok qilinishining qator modellariga, shuningdek, nutqiy faoliyat tuzilishi unsurlarining ajratilishiga asos bo‘lib xizmat qildi[18,18]. Psixolingvistikada materialistik yo‘nalish — til va nutqni inson miyasining mahsuli, tashqi olamning ongda aks etishi va ijtimoiy tajribaning natijasi deb hisoblovchi fundamental nazariyadir. Ushbu yo‘nalish psixolingvistikani metofizik (mavhum) qarashlardan qutqarib, uni eksperimental va tabiiy-ilmiy asosga qo‘ydi. Masalan, afaziya (nutq buzilishi) kabi kasalliklarni davolashda miya va til bog‘liqligini o‘rganishda aynan shu nazariya katta yordam beradi. “Elementlar bo‘yicha tahlil” va “birliklarga ko‘ra tahlil”larning farqni tushunish til va tafakkurning o‘zaro aloqasini anglashda juda muhim. Elementlarga ko‘ra tahlil: bu usul butunni uni tashkil etgan eng kichik bo‘laklarga ajratishdir. Biroq bu bo‘laklar (elementlar) butunning asosiy xususiyatini o‘zida saqlab qolmaydi.Ya’ni, murakkab hodisani shunday qismlarga bo‘lishki, natijada o‘sha hodisaga xos bo‘lgan sifatlar yo‘qoladi. Tilshunoslikda: Nutqni faqat tovushlarga (fonemalarga) ajratib o‘rganish. Tovushning o‘zi ma’no anglatmaydi va nutqning asosiy funksiyasi bo‘lgan “fikr yetkazish” xususiyatini yo‘qotadi. Birliklarga ko‘ra tahlil:materialistik psixolingvistika aynan shu usulni qo‘llab-quvvatlaydi. Bunda butun shunday bo‘laklarga ajratiladiki, u bo‘laklar butunning eng muhim va ajralmas xususiyatlarini o‘zida saqlab qoladi.Ya’ni murakkab butunlikning barcha xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik “hujayra”ni topish. Psixolingvistikada: Vigotskiy uchun nutqiy tafakkurning bunday birligi “So‘zning ma’nosi”dir. Ma’no ham nutqning (tovushli shakl), ham tafakkurning (umumlashtirish) xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Ma’noni yanada kichikroq bo‘lakka ajratsangiz, u “nutqiy tafakkur” bo‘lishdan to‘xtaydi.

Rus psixolingvistikasi nazariyasining asoschisi A.A. Leontevning ta’kidlashicha, “psixolingvistika o‘zining rivojlanishining zamonaviy bosqichida uzviy ravishda psixologik fanlar tizimiga kiradi”. Agar A.N.Leontev izidan borgan holda psixologiyani “individlar hayotini bevosita aks ettiradigan reallikning psixik ifodasining shakllanishi, harakatda bo‘lishi va tuzilishi haqidagi aniq fan” (A.N.Leontev, 1977, 12- b.), deb tushuniladigan bo‘lsa, u holda, til va nutqiy faoliyat mazkur psixik ifodaning shakllanishi va harakatda bo‘lishi, kishilar faoliyatini aks ettirish jarayonida ishtirok etadi. Shu sababdan psixolingvistika va psixologiyaning boshqa sohalari kategoriya va tushuncha jihatidan birlashadi [18,9].

Masalan: Kelinimdan o‘tdek kuyganman. O‘g‘ilginamni yaxshi bilasan, qo‘ydek yuvosh bola. Kelinim yashamagur uni ham rasvo qildi. Bolaginamga ega chiqib, burnidan ip o‘tkazib oldi bu dog‘uli. Onasi yomon xotin. Tagi past. Qudam ko‘chada eshakaravaga teskari minib, bolalarga hushtak berib, shisha yig‘adi. Shunday odamlarning bolasi kim bo‘ladi? Mashoyixlar “Qazisan-qartasan, asl naslingga tortasan” deb, bilib aytishgan ekan.

Ushbu parcha Said Ahmadning “Hasrat” hajviyasidan olinga bo‘lib, bu yerda biz tilning shunchaki aloqa vositasi emas, balki shaxsning ichki dunyosi, ijtimoiy qarashlari va psixologik holatining “ko‘zgusi” ekanini ko‘ramiz. Bundan tashqari, unda qaynona nutqidagi vositalar orqali piching, kesatiq va g‘azab kabi hodisalar vujudga kelgan. Parchada shaxs o‘z ichki kechinmalarini va subyektiv realligini zoomorfik (hayvonlar bilan bog‘liq) metaforalar orqali ifodalagan:”Qo‘ydek yuvosh”: Bu yerda o‘g‘ilning irodasizligi yoki bo‘ysunuvchanligi ijobiy, ammo ojiz obraz orqali

psixik aks etgan.”Burnidan ip o‘tkazib oldi”: Bu ibora shaxsning boshqaruv va nazorat haqidagi ichki tasavvurini ifodalaydi.”Eshakaravaga teskari minib”: Bu tasvir orqali so‘zlovchi o‘zining ijtimoiy nafratini vizuallashtirmoqda. Parchadagi “Qazisan-qartasan, asl naslingga tortasan” maqolining ishlatilishi so‘zlovchining psixikasida ijtimoiy determinizm (ya’ni insonning kelib chiqishi uning taqdirini belgilaydi degan ishonch) o‘ta kuchli ekanligini ko‘rsatadi. Bu — insonning tashqi reallikni qanday qabul qilishi uning ongidagi tayyor lisoniy qoliplar (maqollar) bilan bog‘liqligiga misoldir.Psixolingvistikada bu holat proyeksiya deb ataladi: So‘zlovchi o‘zining muvaffaqiyatsizligini (o‘g‘lining o‘zgarishi) butunlay tashqi omilga (kelin va uning nasli) yuklamoqda. Uning nutqidagi “o‘tdek kuyganman”, “rasvo qildi”, “dog‘uli” kabi so‘zlar reallikning ob’ektiv tasviri emas, balki uning psixik jarohati va agressiyasining lisoniy ifodasidir.

Anjirboyev boyagi stolga tashlagan qog‘ozlarni sher hamlasi bilan yana qo‘liga oldi. Hamma yog‘i savol alomati bosib ketgan qog‘ozlarga bir-bir ko‘z yugurtirib, achchiq danak yegandek yuzini tirishtirdi.

Ushbu parcha Said Ahmadning “Xom sut emgan tanqidchi” hajviyasidan olingan. Anjirboyevning qog‘ozlarni qo‘lga olishi shunchaki jismoniy harakat emas, balki uning ichki agressiyasi va xavotirining tashqi ifodasidir. Psixik ifoda: “Sher hamlasi” birikmasi qahramonning o‘sha lahzadagi ruhiy bosimi, hujumkorlik holatini va masalaga bo‘lgan o‘ta jiddiy (balki qo‘rquv aralash) munosabatini ko‘rsatadi. Bu yerda reallik (qog‘oz) qahramon uchun “o‘lja” yoki “dushman” sifatida psixik obrazga aylangan. Qog‘ozlarda haqiqatda savol belgilari ko‘p bo‘lishi mumkin, lekin “hamma yog‘ini savol alomati bosib ketgan” deyilishi — bu idrokning kengayishidir.Ya’ni Anjirboyev uchun bu qog‘ozlar shunchaki hujjat emas, balki uning taqdirini so‘roq ostiga qo‘yuvchi, unga bosim o‘tkazuvchi tahdiddir. Uning ongi qog‘ozdagi har bir yozuvni o‘ziga qarshi qaratilgan “savol” (ayblov) deb qabul qilmoqda. Psixolingvistikada tashqi ta’sirning jismoniy sezgi bilan qiyoslanishi eng kuchli psixik ifodalardan biri sanaladi.Ya’ni qog‘ozdagi ma’lumotlarni o‘qish (vizual reallik) qahramonning dimag‘ida va ta’m bilish a’zolarida “achchiqlik” hissini uyg‘otmoqda. Bu sinesteziya (bir sezgi organining boshqasiga ta’siri) hodisasi bo‘lib, qahramonning ruhiy azobi va jirkanish hissi yuz mushaklari (tirishtirish) orqali reallashgan. Bu yerda reallik (qog‘ozlar) va uning psixik ifodasi (shaxsiy munosabat) o‘rtasidagi farq yaqqol ko‘rinadi: Ob’ektiv reallik: Stol ustidagi yozilgan qog‘ozlar. Psixik reallik: “Sher hamlasi”, “Savol alomati bosib ketgan dushman”, “Achchiq ta’m”. Muallif (Said Ahmad) bu yerda Anjirboyevning ichki dunyosini tavsiflamayapti, balki uning harakatlari va sezgilari orqali reallikning qahramon ongidagi aksini chizib beryapti. Bu aynan materialistik psixolingvistikadagi “borliqning ongda aks etishi” qonuniyatiga mos keladi. Bu yerdagi “...achchiq danak yeganday yuzini tirishtirdi...” ushbu o‘xshatish orqali Said Ahmad tanqidchining psixologik qiyofasini ochib bergan. Ya’ni tanqidchining bo‘layotgan voqealarga nisbatan o‘zining noroziligini va juda asabiy holatda ekanligini bildirgan.

Charlz Osgudning fikricha, “Psixolingvistika so‘zlovchi niyatining muayyan madaniyat kodida (tilida) qabul qilingan signalga aylanishi va bu signallar tinglovchining interpretatsiyasida qaytadan namoyon bo‘lishi jarayonlarini o‘rganadi. Boshqacha qilib aytganda,psixolingvistika kommunikatsiyaning kodlash va dekodlash jarayonlari bilan shug‘ullanadi”. Shuni ta’kidlash joizki, psixolingvistikaning tadqiqot predmeti faqat kod (til) strukturasi va signal bo’lib qolmay, balki matn yaratish va uni tushunish bilan bog‘liq jarayonlar, kishilar muloqotidagi barcha murakkab omillar hisoblanadi [18,6].

Kod- fransuzcha code, u esa lotincha “codex” so‘zidan olingan. Dastlab bu so‘z “taxtacha”, “kitob” yoki “qonunlar to‘plami” degan ma’noni anglatgan[20,386]. Hozirgi fan tilida esa axborotni uzatish uchun xizmat qiladigan belgilar tizimi ya’ni shartli belgilar majmui tushuniladi. KODLASH (TIRISH)- Axborotlarni foydalaniladigan kodga mos shartli belgilar, tasvirlar va b. majmuiga aylantirish; axborotlarni kodlar shaklida ifodalash. Axborotni bir xil belgili tizimdan boshqa xildagi tizimga o‘tkazish jarayoniga ham kodlash deyiladi. «Politexnika lug‘ati» [20,386]. Tilshunoslikda esa

kodlash — bu so‘zlovchi tomonidan amalga oshiriladigan jarayon. Bunda muayyan fikr, g‘oya yoki his-tuyg‘u til birliklari (so‘zlar, grammatik qoidalar) yordamida moddiy shaklga keltiriladi. Shunday qilib, jarayon avval fikr hamda shu fikrlarning til tizimidagi belgilari so‘ngra esa til birliklarining nutqda moddiylashuvi tarzida kechadi. Kodlash jarayonining asosiy maqsadi shundan iboratki, ichki tushunchani tashqi dunyoga (tinglovchiga) uzatish uchun tushunarli formatga o‘tkazish.

Dekodlash-inglizcha de- (teskari harakat, bekor qilish) va code so‘zlaridan iborat. Dekodlash — bu tinglovchi yoki kitobxon tomonidan amalga oshiriladigan jarayon. Qabul qilingan nutqiy signalni (tovush yoki yozuv) tahlil qilish orqali undagi asl ma’noni qayta tiklash. Demak dekodlash bu ma’lumotni qabul qilish, tushunish hamda javob berish. Shunda jarayon quyidagicha bo‘ladi:eshitgan nutqiy xabari va shu xabarning til birliklarini aniqlash so‘ngra ma’noni tushunish. Agar so‘zlovchi va tinglovchining “kodi” (tili, madaniy tushunchalari) bir xil bo‘lsa, dekodlash jarayoni muvaffaqiyatli kechadi va o‘zaro tushunish hosil bo‘ladi. Bu holat so‘zlovchi va tinglovchi bir-birini muammosiz va hech qanday to‘siqsiz tushunishiga yordam beradi. Kodlash va dekodlash jarayoniga ham so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida, ham yozuvchi va kitobxon o‘rtasida bo‘lishini inobatga olgan holda, Said Ahmadning “Hasrat” hajviyasidan ushbu parchani misol qilib oldik.

Bolam, seni yozuvchi-muxbir deb eshitaman! Shu rostmi? – dedi kampir.

–Shunday, ona, – dedim kulib.

Bu parchada so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi kodlash va dekodlash jarayoniga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni psixolingvistika tomondan qarasak, 1-shaxs o‘z niyatini signallar orqali 2-shaxsga yetkazib bergan. Bu parchani biz ikkala tomondan ham tahlil qilamiz. Ham so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida, ham yozuvchi va kitobxon o‘rtasidagi kodlash va dekodlash jarayonlarini ko‘rib chiqamiz.

So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi bu jarayon ko‘proq og‘zaki nutqda uchraydi. Bu yerda bevosita og‘zaki nutq jarayoni ketmoqda: Kodlash (Kampir): Kampirning ongidagi “shubha”, “qiziqish” va “aniqlashtirish ehtiyoji” lisoniy shaklga kiradi. U “yozuvchi-muxbir” tushunchasini o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib kodlaydi. Uning uchun bu shunchaki kasb emas, balki jamiyatda ma’lum bir mavqega ega, “hamma narsani biladigan” shaxs ramzi bo‘lishi mumkin. Dekodlash: Muallif (hikoyachi) kampirning savolini qabul qiladi. U kampirning nutqidagi ohang va “bolam” so‘zidagi mehrni dekodlab, unga samimiy javob qaytaradi. “Dedim kulib” birikmasi — bu dekodlash jarayonining natijasidagi ijobiy emotsional reaksiya hisoblanadi.

Yozuvchi va kitobxon o‘rtasida esa bu jarayonda esa yozuvchi yoki muallif o‘z asarining mohiyatini kitobxonga qay tarzda yetkazib berishi muhim hisoblanadi.Bu qatlamda kodlash va dekodlash ancha murakkab va vositali (matn orqali) kechadi: Kodlash (Said Ahmad): Yozuvchi o‘zining hajviy niyatini, jamiyatdagi biror “hasrat”li manzarani tasvirlash uchun ushbu dialogni qog‘ozga tushiradi. U qahramonlar nutqi orqali kitobxonga ma’lum bir ijtimoiy-psixologik axborotni yo‘llaydi. “Kulib” so‘zini ishlatish orqali yozuvchi kitobxonga: “Bu yerda kulgi orqali aytiladigan jiddiy gap bor”, degan signalni (kodni) yuboradi. Dekodlash (Kitobxon): Siz va biz kabi kitobxonlar ushbu matnni o‘qib, kampirning soddaligi va yozuvchining unga bo‘lgan munosabatini onggimizda qayta tiklaymiz. Kitobxon kampirning “yozuvchi-muxbir deb eshitaman” degan jumlasi ortida yotgan umid yoki hayratni tushunib yetadi.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, badiiy asardagi personajlar nutqini psixolingvistik jihatdan tahlil qilish, ularning ma’nosi bilan yaqindan tanishish shu asarning tushunilishiga yordam beradi. Psixologiyani tilshunoslik doirasida tadqiq qilish, ularni tasniflash va tahlil qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan yurtimizda ana shunday tadqiqotlarni yaratish tilshunoslar oldidagi ulkan vazifadir.

ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova M., To‘xtayeva S., Xolmanova Z. — “Psixolingvistika” TOSHKENT – 2019
2. Begmatov Ergash — “Nutq madaniyati asoslari”
3. Chomsky Noam — “Syntactic Structures”
4. Hojiyev Anvar — “O‘zbek tilshunosligi terminlari izohli lug‘ati”
5. Jo‘rayev Mamatkul — psixolingvistika va nutq faoliyatiga oid maqolalar
6. Leontyev Aleksey A. — “Osnovi psixolingvistiki”
7. Luriya Aleksandr R. — “Yazik i soznaniye”
8. Madvaliyev A., Mahmudov N. — “O‘zbek tili terminologik lug‘ati”
9. Mahmudov N. — “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...”
10. Matthews P. H. — “The Oxford Dictionary of Linguistics”
11. Ne’matov H., Rasulov R. — “O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari”
12. Nigmatova Dilfuza — psixolingvistika va til o‘qitish metodikasiga oid ishlar
13. Nurmonov A. — “Tanlangan asarlar” (3 jildlik)
14. Osgood Charles — “Method and Theory in Experimental Psychology”
15. Piaget Jean — “The Language and Thought of the Child”
16. Safarov Shahriyor — “Kognitiv tilshunoslik”
17. Safarov Shahriyor — “Pragmalingvistika”
18. Usmanova Shoira — “Psixolingvistika fanidan ma’ruzalar kursi” Toshkent “Universitet” 2014
19. Vigotskiy Lev S. — “Mishleniye i rech” / “Thought and Language”
20. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”.Davlat ilmiy nashriyoti-Toshkent